



# “OLMALIQ KMK” AJ YOSHLAR ITTIFOQI YETAKCHILAR KENGASHI

## “Olmaliq KMK” AJ Yoshlar ittifoqi kengashi faoliyati to‘g’risida MA’LUMOTNOMA





# “OKMK” AJ ISHCHI-XODIMLARI TO’G’RISIDA MA’LUMOT


## XODIM TOIFASI

01.10.2021 yil holatiga  
ishchi-xodimlar soni

	UMUMIY ISHCHI XODIMLAR SONI	38 286
	<b>SHULARDAN:</b>	
	INJENER-TEXNIK XODIMLAR (ITX)	5 180
	ISHCHILAR	33 106
	30-YOSHGACHA BO’LGAN XODIMLAR	14 207
	<b>Shu jumladan, AYOLLAR</b>	3 404




## YOSHLAR SONI DINAMIKASI





## UMUMIY MA'LUMOTLAR

### Oliy ma'lumotli yoshlar soni (11,9%)



Yetakchilar kengashi tarkibi - 33 nafar.

Kombinat hisobidan chet davlatlardagi OTMlarda o'qiyotgan talabalar soni - 43 nafar.


2021 yilda 86 nafar kombinat yoshlarining Respublikamiz OTMlarning sirtqi va kechki bo'limlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilinishlari uchun tavsiyanomalar berildi.






# Yoshlar o`rtasidagi jinoyatchilik va ajrimlarni oldini olish


## JINOYATCHILIK DINAMIKASI



## Ajrimlar dinamikasi



# YETAKCHILAR KENGASHI TUZILMASI



# ISHLAB CHIQARISH JARAYONIDAGI YOSHLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATLARINI RO`YOBGA CHIQARISH MAQSADIDAGI KASB MAHORAT TANLOVLARI



Yoshlarni sportga keng jalg etish maqsadida kombinat va shahrimiz yoshlari o'rtasida sportning shaxmat, suzish, stol tennisi, engil atletika, mini futbol, voleybol, basketbol kabi sport turlari bo'yicha tizimli ravishda "Yoshlar spartakiadasi" sport musobaqalari o'tkazilib kelinmoqda. Shuningdek, kombinat va Olmaliq shahri yoshlari uchun an'anaga aylangan har yili may-iyun oylarida tashkil etiladigan sportning mini futbol turi bo'yicha "Yoshlar kubogi" musobaqlarida kombinatning barcha tarkibiy bo'linmalaridan jamoalar ishtirok etib kelishmoqda.

# **“USTOZ-SHOGIRD” AN'ANASINI MUVOFIQLASHTIRISH, YOSH XODIMLARNI YUQORI LAVOZIMLARGA ZAHIRAGA KIRITILISHINI TA'MINLASH**



Rahbar kadrlar zahirasini shakllantirish va rahbarlik lavozimlariga yosh mutaxassislarni tayinlash maqsadida kombinat yoshlari ittifoqi tomonidan har yili an'anaga aylangan **“Yosh rahbar” ko'rik tanlovi** o'tkazib kelinadi. Ushbu tanlov g'oliblari kombinat bosh muhandisi yoki uning o'rinosarlariga buyruq asosida ma'lum muddatga sinov tariqasida biriktiriladi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan yoshlari rahbarlik lavozimlariga tavsiya etiladi.

Shuningdek, kombinat miqyosida har yili tizimli ravishda **“1 oktyabr - Ustoz va murabbiylar” kuni** munosabati bilan **“Eng yaxshi ustoz va shogird” tanlovi** o'tkazib kelinadi. Ushbu an'anaga sodiq qolgan holda joriy yolda ham 20ga yaqin tarkibiy bo'linmalar orasidan eng kuchli deb topilgan 6 ta juftlik birinchi, ya'ni saralash bosqichidan muvaffaqiyatli o'tdilar. Mazkur saralash bosqichida ishtirokchilar ustozlariga bag'ishlangan she'r, qo'shiq yoki monologni ijro etdilar, hakamlar hay'ati ishtirokchilarning sahna madaniyati hamda ijodkorlik salohiyatini sinovdan o'tkazdilar.

Tanlovning ikkinchi bosqichi 5 ta shartdan iborat holda o'tkazildi. Tanishtiruv, oshpazlik sharti, bilimdonlar sharti, amaliy sinov sharti hamda erkin shart.

Tanlov tok-shou ko'rinishida o'tkazilib, unda ishtirokchilarning nazariy va amaliy bilimko'nikmalarga ega ekanliklarini namoyish etishlari talab etildi, shuningdek ishtirokchilarning ijodiy mahoratlari ham sinovdan o'tkazildi. Tanlov so'ngida barcha juftlik ishtirokchilar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.





# YOSHLARNI SPORTGA JALB ETISH



Yoshlarni sportga keng jalb etish maqsadida kombinat va shahrimiz yoshlari o'rtasida sportning shaxmat, suzish, stol tennisi, engil atletika, mini futbol, voleybol, basketbol kabi sport turlari bo'yicha tizimli ravishda "Yoshlar spartakiadasi" sport musobaqalari o'tkazilib kelinmoqda.

Shuningdek, kombinat va Olmaliq shahri yoshlari uchun an'anaga aylangan har yili mayiyun oylarida tashkil etiladigan sportning mini futbol turi bo'yicha "Yoshlar kubogi" musobaqalarida kombinatning barcha tarkibiy bo'linmalaridan jamoalar ishtirok etib kelishmoqda.



# YOSHLAR O'RTASIDA KITOBXONLIKNI KENG TARG'IB QILISH



Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirish, yoshlarning badiiy adabiyotlarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish maqsadida 100 ta eng qiziqarli kitoblar ro'yxati tuzilib, tizimli ravishda "**Kitoblar yarmarkasi**" tashkil etgan holda ularni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini hamda ular o'rtasida badiiy adabiyotlarni o'qishga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish maqsadida "**Olmaliq KMK**" AJ hamda Olmaliq shahri yoshlari o'rtasida "**Yosh kitobxon**" ko'rik-tanlovi va "**Bilimdonlar maydoni**" (Zakovat) intellektual o'yini, shuningdek **Alisher Navoiy** va **Zahiriddin Muhammad Bobur** tavallud kunlariga bag'ishlab "**Tafakkur sohiblari**" intellektual tanlovi o'tkazildi.



# YOSHLARNI BO`SH VAQTLARINI MAZMUNLI TASHKIL ETISH




Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga erishish maqsadida aprel oyidan boshlab haftaning har juma kunlari "Olmaliq KMK" AJ Yoshlar ittifoqi kubogi uchun "**Quvnoqlar va zukkolar**" (QVZ) ko'rik-tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. Yoshlarning ma'nnaviy ongini yuksaltirish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishini ta'minlash maqsadida havaskor teatr jamoalari jalb qilingan holda **teatr tomoshalari** tashkil qilindi.

Sohibqiron Amir Temur tavallud kuniga bag'ishlab Toshkent shahridagi Amir Temur muzeyi hamda "**Adiblar hiyoboni**"ga Olmaliq shahri hamda "Olmaliq KMK" AJning adabiyot, san'atga qiziquvchan yoshlari bilan birgalikda tashrif buyurildi.

Olmaliq shahri hamda "Olmaliq KMK" AJ yoshlarining dam olish kunlarini mazmunli va maroqli o'tkazishga ko'maklashish maqsadida "Metallurg" madaniyat saroyi xonandalari va badiiy raqs jamoalari hamda kombinatning havaskor yosh xonandalari ishtirokida "**Shou kontsert**" dasturlari tizimli ravishda tashkil qilinmoqda.







“Олмалиқ КМК” АЖ Ёшлар иттифоқи томонидан таркибий бўлинмалар ёшларининг бевосита ишлаб чиқариш жараёнларидағи фаолиятлари билан яқиндан танишиш, уларни қийнаётган муаммоларни ўрганиш, чиқаришга оид таклиф ва ташаббусларини қўллаб-куватлаш мақсадида тизимли равишда учрашувлар ўтказиб келинмоқда. Учрашув давомида аниқланган муаммо ва таклифларни ҳал қилиш бўйича корхона масъулларига тегишли вазифалар берилиб, ёшларнинг комбинат ёшлар иттифоқига бўлган ишончини қозонишга эришилмоқда.

# RAHBAR VA YOSHLAR UCHRASHUVLARIDAN LAVHALAR





# „GENDER TENGLIK” NI TA’MINLASH MAQSADIDAGI TADBIRLARDAN LAVHALAR

